

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No'monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamova	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
M.A.Matmusayeva	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
U.Xolova	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
A.M.To'rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni	418
Y.M.Namozova	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida	423



УО'К: 303.022

**ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI BO'LG'USI KADRLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISHIDAGI MUHIM OMIL SIFATIDA**

**SCIENTIFIC RESEARCH ACTIVITY AS A CRUCIAL FACTOR IN THE PROFESSIONAL
DEVELOPMENT OF FUTURE PERSONNEL**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ БУДУЩИХ КАДРОВ**

To'rayev Azamat Maqsudovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishdagi oliy ta'lif muassasalari oldidagi vazifalar, talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishdagi mavjud kamchiliklar, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishning kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati o'rganilgan. Yangi O'zbekiston sharoitida hamda Uchinchi RENESANNS poydevorini yaratish jarayonlarida ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, jamiyat har bir sohasida "fan-ta'lif-ishlab chiqarish" integratsiyasini kuchaytirishning amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются задачи, стоящие перед высшими учебными заведениями в формировании научно-исследовательских компетенций студентов, существующие недостатки в привлечении студентов к исследовательской деятельности и важность вовлечения их в научно-исследовательскую деятельность для их профессионального развития. Анализируются практические возможности дальнейшей поддержки научно-исследовательской деятельности в условиях нового Узбекистана и в процессе создания Третьего Ренессанса, а также укрепления интеграции "наука-образование-производство" в каждой сфере общества.

Abstract

This article explores the tasks facing higher education institutions in shaping students' scientific research competencies, the existing shortcomings in engaging students in research activities, and the significance of involving them in scientific research for their professional development. It analyzes the practical possibilities for further supporting scientific research activities in the context of the new Uzbekistan and the processes of establishing the Third Renaissance, as well as enhancing the integration of "science-education-production" in every sphere of society.

Kalit so'zlar: strategik vazifa, innovatsion salohiyat, bozor tendensiylari, kasbiy kompetensiya, tadqiqotchilik madaniyati, ziyyoli kadr, shaxsiy ilmiy rivojlanish kompetentlik, olimning ijtimoiy mas'uliyati.

Ключевые слова: стратегическая задача, инновационный потенциал, рыночные тенденции, профессиональная компетенция, культура исследований, интеллектуальные кадры, компетенция личного научного развития, социальная ответственность ученого.

Key words: strategic task, innovative potential, market trends, professional competence, research culture, intellectual personnel, personal scientific development competence, social responsibility of a scientist.

KIRISH

Bugungi ta'lifni axborotlashtirish, fan-ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasi sharoitida bo'lg'usi kadrlarga qo'yiladigan talablar kun sayin ortib bormoqda. Shiddatkor davrda nafaqat yuqori malakali mutaxassislar, balki o'zgaruvchan ma'lumotlar oqimini mustaqil ravishda yo'naltira oladigan, tahlil qilish, umumlashtirish, eng samarali variantlarni topish va muayyan bilim sohalarida tadqiqot olib borishga qodir kadrlarga katta ehtiyoj yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lif sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Oliy ta'lifni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida bo'lajak mutaxassislarining o'z yo'nalishlarida tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi oliy ta'lifni rivojlantirishning strategik vazifalari sifatida belgilab qo'yilgan. Shu jumladan, oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ilmiy tadqiqot ishlari sifatini oshirish, bu borada tegishli

ILMIY AXBOROT

me'yoriy xujjatlarni qabul qilish, talabalarda tanqidiy, ijodiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish va hokazo[1]. Mazkur konsepsiya 2019-yil 11-iyulda PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lif tizimiga boshqarishning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan hamda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, fan-ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, sifatli raqobatbardosh kadrlar tayyorlash kabi bir qator strategik maqsadlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan.

ADABIYOTLAR T AHLILI VA METODOLOGIYASI

Mahalliy tadqiqotchilaridan D.Raximova, Sh.Samiyevalar talabalarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilishning pedagogik shartlari, J.Saydullayev[7] talabalar ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishni pedagogik boshqarish, N.Abdullayeva [2] ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni; S.N.Allayarova [3] talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etishda professor-o'qituvchilarning pedagogik mahoratining ahamiyati xususida ilmiy izlanishlar olib borgan.

MDH tadqiqotchilaridan N.M.Boryotko, V.I.Zagvyazinskiy, V.V.Krayevskiy, I.Ya.Lerner, V.A.Slasteninlar tomonidan talabalar ilmiy faoliyatining spetsifikatsiyasi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik shakllari va ularning turlari tahlil qilingan. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish masalasi esa bir qator olimlar I.Ya.Lerner, M.I.Maxmutov, A.M.Matyushkin va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

So'nggi yillarda talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator dissertatsiyalar F.Sh.Gallulina, E.Yu.Girfanova, P.A.Seldimurova, M.I.Koldina, T.E.Klimova, B.S.Kuznetsova, E.Yu.Girfanova, P.A.Seldimuradova. M.I.Koldina, T.E.Klimova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Ammo mamlakatimizda talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur sohadagi umumiy me'yoriy-huquqiy bazaga, ko'plab nazariy tadqiqotlarga qaramasdan, talabalarning tadqiqot faoliyatiga tayyorligini qanday shakllantirish lozimligi haqidagi savolga javob yo'q. Tadqiqot ishimizda analiz, sintez va qiyosiy tahlil, so'rovnama metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA

Bugungi kunda oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning ustuvor vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- ilmiy-tadqiqot muassasalari tadqiqotchi olimlarini ta'lif jarayoni va talabalar ilmiy rahbarlikga jalb qilish;
- magistratura va doktarantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarini mazkur ilmiy tadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta'minlash;
- jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-tadqiqotlarni tor va fanlar tutashlidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikga ega bo'lgan istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni belgilash, ushbu yo'nalishlarda yuqori malakali professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'ini oshirish[1].

Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda albatta oliy ta'lif muassasalarida innovatsion salohiyatni rivojlantirish muhim. Pedagogning innovatsion salohiyati bu uning shaxsidagi ijtimoiy-madaniy va ijodiy o'ziga xosliklar yig'indisi, pedagogik faoliyatni takomillashtirishga tayyorligi hamda buning uchun zaruriy ichki vosita va metodlarning mavjudligidir[7]. Shuningdek talaba-yoshlarni darsdan tashqari bo'sh vaqtlarida qiziqishlari asosida ustoz-shogird tizimi asosida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish ishlarining samarali tashkil qilinishi muhim. Chunki, bo'lajak mutaxassisda tadqiqot ko'nikmalarining mavjudligi uning yuqori kasbiy mahoratining asosiy sharti hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishning asosida shaxsda shakllangan tadqiqotchilik qobiliyati turadi. Tadqiqotchilik qobiliyatining dastlabki sifatlari mutaxassisning sohaga oid muammolarni aniqlay olishi, kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi, topilgan ma'lumotlarni qayta ishlashi, tanqid va tahsil qilish asosida muammoni hal etishga ijodiy yondasha olishi kabilarda namoyon bo'ladi. Oliy ta'lif bitiruvchilarining o'z mutaxassisliklari bo'yicha nufuzli tashkilotlarda ishlab ketishlari ko'p jihatdan ularning kasbiy malakalari bilan bog'liq ekanligi tasdiqlandi.

Mahalliy tadqiqotchilardan D.Raximova, Sh.Samiyevalar talabalarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishning samarali jixatlarini o'rganishda quyidagilarni aniqlash lozimligini ta'kidlashadi:

ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining talaba uchun ahamiyati nimadan iborat ekanligini aniqlash; o'quv jarayoni tashkiliy jihatlarining talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qay darajada ta'sir ko'rsatishini aniqlash[5].

Biz talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiyatini, ilmiy, pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish, tashabbuskorlik, individual qobiliyatlarini shakllantirish jarayoni sifatida tushunamiz. Fikrimizcha, bugungi zamонавиy o'qituvchida quyidagi ilg'or ko'nikmalar bo'lishi talab qilinadi:

- bolalar jamoasini muvaffaqiyatl boshqara olish;
- ilmiy ma'lumotlar oqimini boshqarish;
- istiqbolli, doimiy rivojlanayotgan o'qitish texnologiyalarini o'zlashtirish;
- samarali tajribalarni o'rGANishi, hamda samarali qo'llay olishi va hokazo.

Ayni damda, bo'lajak o'qituvchi kasbiy muammolar, vaziyatlarni hal qilishda ijodiy yondashuvga ega bo'lishi talab qilinmoqda. Talabalarning kasbiy rivojlanishining tarkibiy qismlari sifatida tadqiqot faoliyati va imkoniyatlari, uning protsessual tabiatni, ya'ni turli xil murakkabliklar va tadqiqot konstantalari masalasini alohida kiritish mumkun. Kasbiy rivojlanishning ikkita darajasi uzviy bir-biri bilan o'zaro bog'liq:

1. Pedagogik ta'lif standartalarining kasbiy ta'lif dasturlari doirasida kelajakdag'i kasbiy malakalarini o'zlashtirish darajasi.

2. Ijodiy kreditlarga faol bosqichma-bosqish jaib qilinishi.

N.V.Bordovskaya pedagogika fanining yutuqlarini va ilmiy usullarini qo'llash asosida pedagogik voqelikni bilih va o'zgartirish yo'nalishidagi o'qituvchi faoliyati turlaridan biri uning yangi pedagogik bilimlarni, tajribalarini ozlashtirishini oqituvchi-tadqiqotchilarning uslubiy madaniyatini rivojlantirish sifatida qaraydi.[4]

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati ham o'qitivchi, ham talabanining individualligini, ijodiy xususiyatlarini namoyon qilishga yordam beradi, hamda o'zini-o'zi anglashga tayyorligini to'liq namoyon qilishga imkon beradi. Tahlillarimiz davomida universitetda aksariyat yuqori kurs talabalari bilim yetishmasligi tufayli ilmiy tadqiqotlar olib borishga qiyinchiliklarga duch kelayotganligining guvohi bo'ldik. Shu o'rinda oliy ta'lif tizimida tizimli ravishda o'qishning dastlabki yillardayoq ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jaib qilish talabalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- fundamental fanlarni chuqur o'rGANISH;
- yechimlarini talab qiladigan munozarali muammolarni topish va kelgusida ma'lum bir maqsad asosida uning ustida ishslash ko'nikmalarining paydo bo'lishi;
- bilim va ijodiy moyilligini rivojlantirish;
- bo'sh vaqtini mazmunli shakllantirish;
- o'qituvchilar bilan yaqinroq ilmiy aloqa o'rnatish;
- ilmiy-tadqiqot kompetensiayasining shakllanishi va hokazo[5].

XULOSA

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar va hujjatlarni tahlil qilish bo'lajak pedagog(talabalar)ning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida bir qator muhim kamchiliklar aniqlandi:

- o'quv rejalarini va dasturlar mazmuni va qurilishi asosan yuqori kurs talabalarida ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmlarini shakllantirishga imkon berishi aniqlandi;

- oliy o'quv yurtlarida quyi bosqichdagi talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bosqichma-bosqich jaib qilish tizimining yo'qligi, ishlab chiqilmaganligi;

- yuqori bosqich talabalarini ilmiy faoliyatga ana'aviy usulda jaib etilishi ularda tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishni imkonsiz qilishi va hokazo.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish bugungi kun jamiyatimiz har bir a'zosining, ayniqsa ziyo'lilar qatlamingin birinchi navbatdagi vazifalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lmini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-llova.
2. N.Abdullayeva. Ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligi bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish omili sifatida//Academic Research in Educational Sciences. VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022.-P.601-612.
3. S.Allayarova. Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etishda professor-o'qituvchi pedagogik mahoratining ahamiyati. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp45-50>.
4. Н.В.Бордовская. Диалектика педагогические исследования: Логика –методологические проблемы./ Бордовская Н.В.,СПб.: РХГИ, 2001.
5. М.В.Корчагина. Формирование готовности будущих педагогов профессионального обучения к научно-исследовательского обучения к научно-исследовательской деятельности./автор.дисс.канд. педагогических наук. (13.00.08) 2013.-С.315.
6. Самиева Ш.Х., Усмонова Г.Х. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.
7. J.Saydullayev. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishni pedagogik boshqarish//International scientific –practical conference, November. 13,2023.-P.454-457.
8. D.Raximova, Sh.Samiyeva. Bo'lajak o'qituvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari//Journal of Education, Ethics and Value Vol.3, № 2, 2024 . P.83-86.
9. F.A. Ibrohimov. Ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim-tarbiyaning zarurati/Academic Research in Educational Sciences, 2020